

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI KENGASH**

---

**KADIROVA UMIDA ERGASHEVNA**

**DAVLAT ULUSHI MAVJUD AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA  
XALQCHIL IPO JARAYONINI AMALGA OSHIRISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri– 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
economical sciences**

**Kadirova Umida Ergashevna**

Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida xalqchil IPO jarayonini amalga oshirishni takomillashtirish ..... 3

**Кадирова Умида Эргашевна**

Совершенствование реализации процесса публичного IPO в акционерных обществах с государственной долей участия ..... 29

**Kadirova Umida Ergashevna**

Improving the implementation of the public IPO process in state-owned joint stock companies..... 55

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 61

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI KENGASH**

---

**KADIROVA UMIDA ERGASHEVNA**

**DAVLAT ULUSHI MAVJUD AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA  
XALQCHIL IPO JARAYONINI AMALGA OSHIRISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri– 2025**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.1.PhD/Iqt3754 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)ga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Raxmonov Dilshodjon Alidjonovich  
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Abduraxmonov Ilyos Xurshidovich  
Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Almardonov Muxammadi Ibragimovich  
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** G.I.Plexanov nomidagi Rossiya Iqtisodiyot universiteti Toshkent shahridagi filiali

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "09" 08 soat 12<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy..  
Tel: +998 95 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (81 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel: +998 95 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "25" 07 kuni tarqatildi.

(2025-yil «17» 05 dagi 30 raqamli reestr bayonnomasi).



**N.X. Jumayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**A.T. Absalamov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**A.R. Norov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)**

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globallashtirish sharoitida davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari o'z faoliyatlarini moliyalashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi bozorlarga chiqish va raqobatbardoshlik darajasini oshirish maqsadida moliyaviy resurslarni jalb etishda haqiqiy IPO amaliyoti keng tarqalgan moliyalashtirish mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Xususan, IPO va SPO orqali jalb qilingan kapital kompaniyaning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash bilan bir qatorda, uning korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, korporativ madaniyatini rivojlantirish va xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, Hindiston, AQSh va Yevropa bozorlarida aksiyadorlik jamiyatlari IPO o'tkazish bo'yicha faollik namoyon etmoqda. Xususan, Hindistonda 2024-yilda 327 ta IPO o'tkazilib, 19,9 milliard dollar miqdorida mablag' jalb qilindi<sup>1</sup>. Bu esa, o'z navbatida, IPOning kompaniya rivojlanishi va o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish manbai sifatida qanchalik muhim ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatadi.

Jahonda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda ommaviy joylashtirish amaliyotining iqtisodiyotdagi o'rni, uning turlari va mohiyati, shuningdek, korporativ tuzilmalar tomonidan bu amaliyotni tashkil etishning ahamiyati va zaruriyati kabi masalalar qamrab olingan. Biroq mavjud tadqiqotlarda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini samarali tashkil etish bilan bog'liq muammolar va qonuniyatlar, xususiylashtirish jarayonida aksiyalarni ommaviy joylashtirish imkoniyatlari, ommaviy joylashtirishdan so'ng investorlar bilan munosabatlar tizimini samarali shakllantirish masalalari, shuningdek, ommaviy joylashtirish jarayonida savdo tashkilotchilari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Shu sababli, ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar bugungi kunda yuqori dolzarblik kasb etmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, so'nggi yillarda mamlakatda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish uchun institutsional asoslar yaratildi. Shu bilan birga, moliya bozorini rivojlantirish bo'yicha mustaqil davlat organining mavjud emasligi, fond bozori faoliyatining samarali yo'lga qo'yilmaganligi, xususan, fond bozori aktivlarini baholash mexanizmining takomillashmaganligi kabi muammolar sohadagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida kelgusi besh yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish"<sup>2</sup> vazifasi alohida belgilab berilgan.

---

<sup>1</sup> <https://www.visualcapitalist.com/visualizing-global-ipos-in-2024-by-country/?weekend-reading-link-210225/>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni. PF-60-son, 2022 yil 28 yanvar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-yanvardagi PF-4933-son “Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob’ektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 8-yanvardagi PF-5927-son “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektor rolini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-son “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 25-avgustdagi PF-186-son “Strategik davlat aktivlarini xususiylashtirishni jadallashtirish va davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 14-dekabrda PF-256-son “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish va ularning faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 10-maydagi 268-son “Fond birjasida aksiyalarni ommaviy taklifini o‘tkazishni tashkil etish to‘g‘risida”, 2021-yil 13-apreldagi PQ-5052-son “Kapital bozorini yanada rivojlantirish va investitsiya muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 25-avgustdagi PQ-3666-son “Davlat aktivlarini samarali boshqarish va ularni xususiylashtirishning yangi bosqichi bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 24-martdagi PQ-102-son “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda 2024-yil 5-yanvardagi PQ-2-son “Kapital bozorini liberallashtirish va IPO jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tadqiqot ishi iqtisodiy nazariyaning zamonaviy yutuqlariga, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozori va birja ishining umumiy nazariyasiga hamda bu sohada xoriijiy tajribaga asoslanadi. Xususan, qimmatli qog‘ozlar bozorining muammolarini o‘rganishda tadqiqot o‘tkazgan uzoq xoriij olimlaridan R.Ibbotson, R.Levin, A.Demirj-Kant, R.Geddes, K.Rok, A. de la Torre, Dj.Ritter, I.Velch, Dj.Brau, S.Fyuset, T.Chemmanur, D.Bredley va boshqalarni keltirish mumkin<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Ibbotson R. Price performance of common stock new issues. (1975) Journal of Financial Economics, 2 (3), pp. 235-272.; Ritter, J. R., and I.Welch, 2002, A review of IPO activity, pricing, and allocations, Journal of Finance 57, 1795-1828.; Welch, I., 1991, An empirical analysis of models of contract choice in initial public offerings, Journal of Financial and Quantitative Analysis 26, 497-518.; Geddes R. IPO and subsequent stock offering. (2008) Olympus Business; James C. Brau, Stanley E. Fawcett. Initial Public Offerings: An Analysis of Theory and Practice. (2006) The Journal of Finance; Chemmanur, T. J., and P. Fulghieri, 1999, A theory of the going-public decision, Review of Financial Studies 12, 249-279.; Bradley, D., J. W. Cooney, B. Jordan, and A. K. Singh, 2004, Negotiation and the IPO offer price: A comparison of integer vs. non-integer IPOs, Journal of Financial and Quantitative Analysis 39, 517-540.; James Brau, Bill Fransis, Ninon Kohers. The Choice of IPO versus Take-over: Empirical Evidence. / Brau // The Journal of Business, vol. 76, issue 4, 583-612 – 2003 – 15 p.

Ya.Mirkin, B.Rubsov, N.Berzon, V.Galanov, B.Alexin, A.Anikin kabi yaqin xorij olimlari tomonidan qimmatli qog‘ozlar bozorini to‘liq va batafsil o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan<sup>4</sup>.

O‘zbekistonda ham qimmatli qog‘ozlar bozori, uning rivojlanishi va bugungi kundagi faoliyati yuzasidan bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, respublika fond bozorining rivojlanish muammolari I.Butikov, N.Karimov, Sh.Shoha‘zamiy, M.Xamidullin, U.Aliev, V.Kotov, F.Muxamedov, S.Elmirzaev, X.Xudoyqulov, J.Karimqulov, U.Xalikov, A.Aliqulov, N.Abdullaeva, A.Xo‘jamurodov, Sh.Saydullaev va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan<sup>5</sup>.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyihalar doirasida tayyorlangan.

**Tadqiqotning maqsadi** davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida xalqchil IPO jarayonini amalga oshirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida xalqchil IPO jarayonini amalga oshirishning nazariy asoslarini tadqiq qilish;

xalqchil IPO jarayonini amalga oshirishda aksiyalar qiymati va daromadlilikini baholashning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish;

davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini ommaviy joylashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini asoslash;

O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar savdosini IPO shaklida tashkil etishning amaldagi holatini tahlil qilish;

---

<sup>4</sup> Я.Миркин. Рынок ценных бумаг. Учебное пособие. 2002. – 87 с.; Рубцов Б.Б., Напольнов А.В. Мировой и российский рынки IPO: анализ тенденций и перспектив развития // Эффективное антикризисное управление. 2011. № 5. С. 60-69.; Шевченко Д.А., Хомяков Д.П. Проблемы IPO на рынке ценных бумаг материкового Китая // Финансы и кредит. 2015. № 32. С. 39-47.; Корень А.В. Международные биржевые фонды как основа диверсификации инвестиционного портфеля // В мире научных открытий. – 2010. – № 4-9. – С. 53-55.; Ковалев, М. Первичное публичное размещение акций: перспективы / М. Ковалев // Вестник ассоциации белорусских банков. – 2018 – 5 с.

<sup>5</sup> Бутиков И. Рынок ценных бумаг. Учебник. – Т.: Консаудитинформ, 2001. - 496 б.; Karimov, N., & Saydullaev, S. (2019). Prospects for the development of the stock market: The first IPO and SPO analysis conducted by the companies of Uzbekistan. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 11(7), 938-950.; Шохаззамий Ш.Ш. Биржевая деятельность. Учебник. - Т.: Pm Ziyu, 2006. - 288 с.; 49.; Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления. – Т.: Молия, 2008. - 204 с.; Алиев У.М. Пути совершенствования функционирования инфраструктуры рынка ценных бумаг: Автореферат дисс... к.э.н. – Ташкент, 2008. - 19 с.; Котов В.А. Организация рынка ценных бумаг. – Т.: Молия, 2007. – 23с.; Muxamedov F.T. O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozori savdo tizimlarini rivojlantirish yo‘nalishlari. Iqt. fan. dokt. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 60 б.; Элмирзаев С.Э. и др. Финансовый рынок. Учебник. – Тошкент.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019/ - 400 с; Xudoyqulov X.X. Fond bozori aktivlarini baholash mexanizmini takomillashtirish: Iqt. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2018. - 24 б.; Karimqulov J.I. O‘zbekiston iqtisodiyotida qimmatli qog‘ozlar bozori rolini oshirish yo‘llari: I.f.n. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2012. - 22 б.; Xalikov U.R. O‘zbekistonda fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish: Iqt. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2017. - 24 б.; Aliqulov A.T. O‘zbekistonda fond bozori orqali kapital oqimini oshirish: Iqt. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2021. - 54 б.; Abdullaeva N.A. Fond bozorida aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish (IPO) da sug‘urta instrumentlarini qo‘llash yo‘llari. Iqtisodiyotva ta‘lim / 2020, №1.; A.Xo‘jamurodov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fand bozori infratuzilmasini takomillashtirish. Iqt. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) diss. Avtoref.

aksiyalari birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifi orqali joylashtirilgan aksiyadorlik jamiyatlari amaliyoti tahlilini yoritib berish;

aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini bozor bahosini o'sishiga ta'sir qiladigan omillarini ekonometrik tahlil qilish;

O'zbekistonda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini takomillashtirishda xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish istiqbollari belgilash;

davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida xalqchil IPO jarayonini amalga oshirishni takomillashtirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot ob'ektlari** sifatida xalqchil IPO jarayonini amalga oshirilgan aksiyadorlik jamiyatlari tanlangan.

**Tadqiqot predmetini** Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida xalqchil IPO jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiya oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etishda ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning tizimli tahlili, iqtisodiy-statistik tahlil, kuzatish, korrelyatsion-regressiya ekonometrik tahlili va taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

xalqchil IPOda o'tkazilayotgan aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining ommaviy takliflarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi norezidentlari va rezidentlari uchun depo hisob varaqlarni va buyurtma berishni onlayn masofadan turib amalga oshirish tartibini joriy qilish taklifi asoslangan;

davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarini aksiyalarini xalqchil IPO jarayonini amalga oshirishda institutsional investorlar uchun sotib olinadigan aksiyalar bo'yicha 0,05 foiz cheklovlarni belgilamaslik taklifi ishlab chiqilgan;

davlat ishtirokidagi yirik korxonalar aksiyalarining ikkilamchi (SPO) ommaviy joylashtirishni amalga oshirishda anderrayter, investitsiya vositachilari va boshqa konsultantlar tomonidan aksiyalarning dastlabki narx chegaralarini chegirmaviy pul oqimlari usuli yordamida aniqlash taklifi asoslangan;

davlat qimmatli qog'ozlar bozorining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va xalqaro kapital oqimini rag'batlantirish maqsadida xorijiy investorlar uchun masofadan turib ro'yxatdan o'tish va investitsion hisobvaraqa ochish tartibini soddalashtirish mexanizmlarini joriy etish taklif etilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida xalqchil IPO jarayonini amalga oshirish mohiyati ochib berilgan;

xalqchil IPO jarayonini amalga oshirishda aksiyalar qiymati va daromadlilikini baholash asoslab berilgan;

xalqchil IPOda o'tkazilayotgan aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining ommaviy takliflarini amalga oshirishda depo hisob varaqlarni ochish amaliyoti ishlab chiqilgan;

xalqchil IPOni amalga oshirishda institutsional investorlar uchun sotib olinadigan aksiyalari bo'yicha cheklovlarni belgilash amaliyoti ishlab chiqilgan;

xalqchil IPOni amalga oshirishda anderrayter, investitsiya vositachilari va boshqa konsultantlarni orqali aksiyani qiymatini chegarasini belgilash bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan;

xalqchil IPO ni amalga oshirishda aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini bozor bahosini o‘sishi bo‘yicha istiqbollari asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya tadqiqotida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi ishda qo‘llanilgan uslubiy yondashuv va ushbu usullarning maqsadga muvofiqligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan, xususan xalqchil IPO jarayonini amalga oshirgan aksiyadorlik jamiyatlari rasmiy ma‘lumotlaridan olinganligi, shuningdek, xulosa, taklif va tavsiyalarining amalda sinovdan o‘tkazilganligi hamda aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha olingan natijalarning tegishli tashkilotlar tomonidan ma‘qullanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot natijalari, xulosalari va tavsiyalaridan qimmatli qog‘ozlar bozorida aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish mexanizmlari haqidagi nazariy va amaliy bilimlar doirasini kengaytirish, qimmatli qog‘ozlar bozorida aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirishning konseptual jihatlarini chuqur o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus ilmiy ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Ilmiy ishning amaliy ahamiyati tadqiqot amaliy natijalari, xulosalari va tavsiyalaridan kelgusida o‘tkazilishi belgilangan va rejalashtirilgan IPO larni yanada muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun qarorlar qabul qilish va amaliy chora-tadbirlarni belgilashda, tadqiqot g‘oyalari va materiallaridan oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv dasturlarini takomillashtirish, darsliklar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar tayyorlash, shuningdek, “Moliya”, “Moliya bozorlari, institutlari va instrumentlar”, “Korporativ moliya” kabi fanlarni o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Davlat ulushidagi aksiyadorlik jamiyatlarida xalqchil IPO jarayonini amalga oshirishni takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

xalqchil IPO da o‘tkazilayotgan aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining ommaviy takliflarini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari va rezidentlari uchun depo hisob varaqlarni va buyurtma berishni onlayn masofadan turib amalga oshirish tartibini joriy qilish taklifi 2025-yil 12-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1028-son Qonunning 1-moddasi 5-bandini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 7-maydagi №3/dn-95-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorida investorlar ishtirokini ortishiga, hamda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar savdosi bilan bog‘liq jarayonni tezlashtirishga va savdo hajmini ortishiga olib kelgan;

davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarini aksiyalarini xalqchil IPO jarayonini amalga oshirishda institutsional investorlar uchun sotib olinadigan aksiyalar bo‘yicha 0,05 foiz cheklovlarni belgilamaslik taklifi 2024-yil 14-fevraldagi “Davlat mulkini xususiylashtirish to‘g‘risida” O‘RQ-907-son Qonunning 32-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 7-maydagi №3/dn-95-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, qimmatli qog‘ozlar

bozoridagi savdoda institutsional investorlarning salmog‘i oshishiga, hamda qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish zaruriyatiga imkoniyat yaratgan holda qimmatli qog‘ozlar infratuzilmasining rivojlanishiga turtki bo‘lgan;

davlat ishtirokidagi yirik korxonalar aksiyalarining ikkilamchi (SPO) ommaviy joylashtirishni amalga oshirishda andarrayter, investitsiya vositachilari va boshqa konsultantlar tomonidan aksiyalarning dastlabki narx chegaralarini chegirmaviy pul oqimlari usuli yordamida aniqlash taklifi 2024-yil 14-fevraldagi “Davlat mulkini xususiylashtirish to‘g‘risida” O‘RQ-907-son Qonunning 21-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 7-maydagi №3/dn-95-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi aksiyalar paketining hajmi ortishiga, hamda aksiyalarni savdoga chiqarish muddatini belgilash va aksiyaning nominal va baho qiymatiga bog‘liq bo‘lmagan narx chegaralarini belgilash imkoniyatini bergan;

davlat qimmatli qog‘ozlar bozorining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va xalqaro kapital oqimini rag‘batlantirish maqsadida xorijiy investorlar uchun masofadan turib ro‘yxatdan o‘tish va investitsion hisobvaraqa ochish tartibini soddalashtirish mexanizmlarini joriy etish taklifi 2025-yil 7-fevraldagi “Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘RQ-1025-son Qonunning 23-moddasi 3-bandini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 7-maydagi №3/dn-95-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, xorijiy sarmoyadorlarning bozorga kirishi qimmatli qog‘ozlar bozori likvidligining oshishiga, savdo hajmining kengayishiga, narxlar shakllanishining yanada shaffoflashishiga, hamda brokerlik xizmatlari, elektron savdo platformalari va hisob-kitob tizimlari yanada rivojlanishiga sabab bo‘lgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 2 ta Respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi Respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 119 varaqni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan,

tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning **“Aksiyalarni ommaviy joylashtirishda xalqchil IPO amaliyotini tashkil etishning nazariy asoslari”** nomli birinchi bobida davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida xalqchil IPO jarayonini amalga oshirishning nazariy asoslari, xalqchil IPO jarayonini amalga oshirishda aksiyalar qiymati va daromadlilikini baholashning o'ziga xos jihatlari va davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini ommaviy joylashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi yoritib berilgan.

So'nggi yillarda mamlaktimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida iqtisodiyotning barqaror o'sishi hamda fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Shu boisdan, “Xalqchil IPO” jarayonini amalga oshirish mamlakat fuqarolari uchun sarmoya kiritish va passiv daromad olish imkoniyatini yaratishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Mazkur jarayonni amalga oshirish orqali fuqarolar ommaviy taklif qilinadigan jamiyatlar aksiyalarini xarid qilish imkoniga ega bo'lib, milliy boylikning sherikchilik asosidagi mulkdorlariga aylanadilar. O'z navbatida, fuqarolar tomonidan aksiyalar egalik ulushining ortishi ularning mazkur korxonalar faoliyatiga bo'lgan mas'uliyatini va qiziqishini oshiradi. Shu bilan birga, davlat ommaviy joylashtirish orqali aksiyadorlik jamiyatlariga egalik qilishdagi monopol mavqeini qisqartirar ekan, iqtisodiy resurslarni keng aholi o'rtasida taqsimlash orqali bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtiradi. Zamonaviy iqtisodiyotda har bir inson passiv daromad manbalarini shakllantirish, hayot sifati va farovonligini oshirish, shuningdek, farzandlariga boy meros qoldirish maqsadida investitsiya yo'nalishlarini o'rganish va unda ishtirok etish zaruratini mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, “Xalqchil IPO” dasturi - bu O'zbekistonning yirik davlat kompaniyalari aksiyalari faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga taklif etiladigan jarayon hisoblanadi. Mamlakatimizda “Xalqchil IPO” dasturi orqali aksiyalarini sotib olish mumkin bo'lgan kompaniyalar quyidagilardan iborat

### 1-jadval

#### «Xalqchil IPO» dasturi orqali aksiyalarini sotib olish mumkin bo'lgan kompaniyalar<sup>6</sup>

Kompaniya nomi	Tavsifi
“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ	O'zbekistonning yirik kon-metallurgiya korxonalaridan biri
“O'zbektelekom” AJ	O'zbekistondagi yirik aloqa operatori
“O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi” AJ (“O'zRTXB”)	O'zbekistonda dividendlar to'lash bo'yicha yetakchi kompaniya
“O'ztemiryo'lkonteyner”	Yuk tashish

<sup>6</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinishicha, barcha mamlakatimiz fuqarolari “Xalqchil IPO” dasturi orqali “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ, “O‘zbektelekom” AJ, “O‘zRTXB” AJ va “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ aksiyalarini sotib olishlari mumkin.

Jumladan, Rossiyada “Xalqchil IPO” dasturi 1990-yillarda davlat korxonalarini xususiylashtirish jarayonida shakllandi. Bu jarayon uch asosiy bosqichda amalga oshirildi.

## 2-jadval

### Rossiyada “Xalqchil IPO”ning rivojlanish bosqichlari<sup>7</sup>

№	Bosqichlar	Bosqichlar yillari	Amalga oshirish jarayoni
1	Vaucher xususiylashtirish bosqichi	1992-1994-yillar	Davlat mulkini xususiylashtirishni tezlashtirish maqsadida, har bir fuqaroga maxsus vaucherlar (xususiylashtirish cheklari) tarqatildi. Fuqarolar ushbu vaucherlarni davlat korxonalarining aksiyalariga almashtirish yoki sotish imkoniyatiga ega edilar. Bu bosqichda aholining keng qatlami xususiylashtirish jarayoniga jalb qilindi, biroq moliyaviy savodxonlikning pastligi va axborot yetishmovchiligi sababli ko‘plab fuqarolar o‘z vaucherlarini arzon narxlarda sotib yubordilar.
2	Pul xususiylashtirish bosqichi	1994-1996-yillar	Bu davrda davlat korxonalarining aksiyalari ochiq auksionlar orqali sotila boshlandi. Asosiy maqsad davlat byudjetiga mablag‘ jalb qilish edi. Biroq, bu bosqichda ham aholining moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi sababli, aksiyalar asosan yirik investorlar va moliyaviy guruhlar tomonidan sotib olindi.
3	“Xalqchil IPO” dasturlari	2000-yillar boshidan	Rossiya hukumati davlatga tegishli yirik kompaniyalarni xususiylashtirishda aholining ishtirokini oshirish maqsadida “Xalqchil IPO” dasturlarini joriy qildi. Masalan, 2006-yilda “Rosneft” kompaniyasining aksiyalari ommaviy savdoga chiqarildi va fuqarolarga aksiyalarni sotib olish imkoniyati berildi. Bu bosqichda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va investitsiya madaniyatini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Umuman olganda, Rossiyada “Xalqchil IPO” ning rivojlanishi davlat mulkini xususiylashtirish jarayonida aholining ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, bu jarayon davomida turli bosqichlarda turli yondashuvlar qo‘llanildi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, hozirgi vaqtda Rossiyada kelajakda Xalqchil IPO o‘tkazishi mumkin bo‘lgan ko‘plab yirik kompaniyalar mavjud. Biroq, tayyorgarlik jarayonlari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri joylashtirishning yuqori narxi tufayli ularning aksariyati tashkiliy-huquqiy shaklning boshqa turlarini afzal ko‘rishadi. Baholash usullarini takomillashtirish va qo‘llaniladigan vositalar sonini ko‘paytirish orqali kompaniyani baholash uchun tayyorgarlik bosqichining narxini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Bu esa kelajakda Xalqchil IPOga bo‘lgan talabni sezilarli darajada oshirishi mumkin, shuningdek, u yangi ish o‘rinlari yaratish va yangi ish

<sup>7</sup> Internetdagi manbalar va ilmiy adabiyotlardagi ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

o‘rinlari yaratish orqali iqtisodiy sharoitga, shuningdek aholining farovonligiga foydali ta’sir ko‘rsatadi.

Qozog‘istonda “Xalqchil IPO” dasturi davlat korxonalarining aksiyalarini ommaviy taklif qilish orqali aholining investitsiya madaniyatini oshirish va moliyaviy bozorni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan. “Xalqchil IPO” dasturi quyidagi bosqichlarda rivojlandi.

### 3-jadval

#### Qozog‘istonda “Xalqchil IPO”ning rivojlanish bosqichlari<sup>8</sup>

№	Bosqichlar	Bosqichlar yillari	Amalga oshirish jarayoni
1	Dastlabki rejalashtirish	2011-2012-yillar	Qozog‘iston hukumati “Xalqchil IPO” dasturini e’lon qilib, davlatga qarashli yirik kompaniyalarni xususiyashtirish rejasini ishlab chiqdi.
2	Birinchi bosqich	2012-2014-yillar	“KazTransOil” kompaniyasi 2012-yilda birinchi bo‘lib aksiyalarini ommaviy taklif qildi. Keyinchalik, “KEGOC” (2014-yilda) va boshqa kompaniyalar ham IPO o‘tkazdi.
3	Ikkinchi bosqich	2015-2017-yillar	Dastur davom ettirilib, “KazTransGas” va boshqa energetika kompaniyalari aksiyalari sotuvga chiqarildi.
4	Uchinchi bosqich	2018-2020-yillar	“Kazatomprom” kompaniyasi 2018-yilda IPO o‘tkazdi, bu esa xalqaro investorlar uchun ham ochiq bo‘ldi.
5	To‘rtinchi bosqich	2021-yildan hozirgi kungacha	Dastur doirasida boshqa yirik kompaniyalar, jumladan, “Air Astana” va “KazMunayGas” aksiyalari ommaviy taklif qilinishi rejalashtirilgan.

“Xalqchil IPO” dasturi Qozog‘istonning moliya bozorini rivojlantirishda muhim rol o‘ynab, aholining investitsiya imkoniyatlarini kengaytirdi. “Xalqchil IPO” Qozog‘istondagi qimmatli qog‘ozlar bozorining yanada rivojlanishiga turtki beradi, aholining jamg‘armalarini diversifikatsiya qilish va ko‘paytirishga, qozog‘istonliklar orasida qimmatli qog‘ozlarga sarmoya kiritish madaniyatini shakllantirishga, shuningdek, eng yirik mahalliy kompaniyalarning shaffofligi va samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Jumladan, fikrimizcha, har bir mamlakatda emitentlar tomonidan aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish mexanizmlarini qo‘llashga oid tahliliy va statistik ma’lumotlarni taqdim etadigan kapital bozorining maxsus segmenti bo‘lib, mazkur segment – IPO bozori deb ataladi. Xususan, global IPO bozori, AQSh IPO bozori, O‘zbekiston IPO bozorlari, aslida IPO lar odatiy fond birjalarida tashkil etilsada, mazkur bozorlar IPOlar bo‘yicha zarur ma’lumotlarni taqdim etadigan segment hisoblanadi.

Aksariyat hollarda yangi tashkil etilgan kompaniyalarning aksiyalarini fond bozorlarida joylashtirish birlamchi ommaviy joylashtirish deb talqin qilinadi. Biroq, aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish hamda aksiyalarni emissiya qilish

<sup>8</sup> Internetdagi manbalar va ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

asosida fond bozorida savdoga chiqarish o'rtasida qo'yidagi bir qancha farqlar mavjud (4-jadval).

#### 4-jadval

### Aksiyalarni ommaviy joylashtirish va birjada oddiy joylashtirish o'rtasidagi farqlar<sup>9</sup>

Amalga oshiriladigan harakatlar	Ommaviy joylashtirish	Oddiy joylashtirish
Anderrayter ishtiroki	Anderrayter ommaviy joylashtirishda eng asosiy ishtirokchi hisoblanadi	Oddiy joylashtirishda talab etilmaydi
Bir dona aksiyani narxini aniqlash	Narx diapazoni asosida savdoga chiqariladi	Nominal yoki bozor narxiga asosan savdoga chiqariladi
Aksiyalarni lot yoki transh asosida qismlab sotish	Aksiyalar lotlarga bo'linadi va cheklangan miqdorda bitta aksiyadorga sotiladi	Cheksiz sonda chiqariladi, jami aksiyalarni bitta lot bilan ham sotish/sotib olish mumkin
Reklama kompaniyasi – “Roadshou” va korxonahahlili – “Dyu dilijens” tadbirlarining o'tkazilishi	O'tkazilishi majburiy	O'tkazilmaydi
Kompaniya to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etish	Majburiy	Transparentlik talablariga har doim ham rioya etilmaydi
Jami aksiyalarning sotilish ehtimoli	Juda yuqori	Past

Birinchi jadvalda keltirilgan farqlardan tashqari IPO o'tkazishning o'ziga xos ishtirokchilari mavjud bo'lib, bu ommaviy joylashtirishni oddiy joylashtirishdan keskin farq qilishini asoslaydi. Kompaniyaning IPO ga tayyorgarlik ko'rish va to'g'ridan-to'g'ri birja listingi jarayonida asosiy ishtirokchilari sifatida anderrayter (lid-menejer, ular odatda butun loyihaning muvofiqlashtiruvchisi bo'lib ishlaydi), yuridik firma, auditorlik firmasi va PR agentliklari qatnashadi.

Tadqiqot ishining **“O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida IPO tajribalari tahlili”** nomli ikkinchi bobida O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar savdosini IPO shaklida tashkil etishning amaldagi holati tahlili, Aksiyalari birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifi orqali joylashtirilgan aksiyadorlik jamiyatlari amaliyoti tahlili va halqchil IPO amalga oshirgan aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini bozor bahosini o'sishiga ta'sir qiladigan omillarni ekonometrik tahlili bayon qilingan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat ulushiga ega aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini ommaviy taklif (IPO) shaklida joylashtirish jarayoni jadal rivojlanmoqda. Bu jarayon mamlakatda xususiylashtirish siyosatini chuqurlashtirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish hamda kapital bozorini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yirik sanoat, energetika va

<sup>9</sup> Karimov, N., & Saydullaev, S. (2019). Prospects for the development of the stock market: The first IPO and SPO analysis conducted by the companies of Uzbekistan. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 11(7), 938-950.

telekommunikatsiya sohalaridagi davlat korxonalarini IPO orqali xususiy sektorga chiqarish fuqarolar uchun sarmoyaviy imkoniyatlarni kengaytirish, korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash va kompaniyalarning moliyaviy shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda. Dunyo amaliyotida korporativ tuzilmalar tomonidan IPO yoki SPO amaliyotlarini milliy bozorlardan tashqari xalqaro bozorlarda tashkil etilayotganligini alohida ta’kidlash lozim. Yuqoridagi jihatlar mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan mintaqaviy va xalqaro fond birjalarida IPO yoki SPO amaliyotlarini tashkil etish vaqti ham allaqachon kelganligini ko’rsatib turibdi.

Mamlakatimiz amaliyotida ilk marotaba IPO va SPO operatsiyalari 2017-yil 28-dekabr kuni amalga oshirildi. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-yanvardagi “Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchuy davlat mulki ob’ektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-4933-sonli farmoni”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda imzolangan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish”, “alohida milliy korxonalar aksiyalarining xorijiy nufuzli fond birjalarida dastlabki tarzda joylashtirilishiga erishish (IPO), ularning xorijiy kapital bozoriga chiqishini ta’minlash” kabi belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash xamda davlat mulki ob’ektlarini tasarruf etish bo‘yicha xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan shakllarni joriy etish va aholining keng qatlamini fond bozoriga jalb qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017-yil 10-maydagi 268-sonli “Fond birjasida aksiyalarni ommaviy taklifini o‘tkazishni tashkil etish to’g’risida” tegishli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda aksiyalarini birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifi amalga oshiriladigan aksiyadorlik jamiyatlarining ro‘yxati ham belgilab berildi.

## 5-jadval

### O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017-yil 10-maydagi 268-sonli qaroriga asosan aksiyalari birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifi orqali sotilishi belgilangan AJlarining ro‘yxati<sup>10</sup>

№	Aksiyadorlik jamiyatlarining nomlanishi	Aksiyalar ommaviy taklifining tashabbuskori	Aksiyalar ommaviy taklifini amalga oshiruvchi	Realizatsiya shakli
1.	“Kvars” AJ	“Kvars” AJ	TIF Milliy banki	IPO
2.	“Shaxrisabz vino-aroq” AJ	Davlat raqobat qo‘mitasi	“Asaka” ATB	SPO
3.	“Qo‘qon mexanika zavodi” AJ	“Uzneftgazmash” AK	TIF Milliy banki	SPO

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 10 maydagi «Fond birjasida aksiyalarni ommaviy taklifini o‘tkazishni tashkil etish to’g’risida»gi 268-sonli qarori.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "Kvars", "Shaxrisabz vino-arog" va "Qo'qon mexanika zavodi" aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari O'zbekistonda ilk marotaba aholiga "IRO" va "SPO" orqali rasman taklif etildi. Yuqoridagi qarorga muvofiq "Kvars" va "Qo'qon mexanika zavodi" aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini TIF Milliy banki, "Shaxrisabz vino-arog" aksiyadorlik jamiyati aksiyalari sotuvining tashkilotchisi sifatida esa "Asakabank" belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 10-maydagi 268-sonli "Fond birjasida aksiyalarni ommaviy taklifini o'tkazishni tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga asosan IPO va SPO amaliyotini tashkil qilishi rejalashtirilgan 3 ta aksiyadorlik jamiyatidan "Kvars" aksiyadorlik jamiyati va "Qo'qon mexanika zavodi" aksiyadorlik jamiyatlari IPO va SPO amaliyotini o'tkazdi. Qarorda belgilangan "Shaxrisabz vino-arog" aksiyadorlik jamiyati SPO amaliyotini o'tkazmaganligini ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-apreldagi "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4265-sonli Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 26-apreldagi 358-sonli "Fond birjasida aksiyalarning birlamchi va ikkilamchi ommaviy takliflarini o'tkazishni tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan quyidagi aksiyadorlik jamiyatlari IPO va SPO o'tkazilishi belgilangan edi (6-jadval)

#### 6-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 26-apreldagi  
358-sonli qaroriga asosan aksiyalari birlamchi (IPO) va  
ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifi orqali sotilishi belgilangan  
AJlarining ro'yxati<sup>11</sup>**

<b>№</b>	<b>Aksiyadorlik jamiyatlarining nomlanishi</b>	<b>Aksiyalar ommaviy taklifining tashabbuskori</b>	<b>Realizatsiya shakli</b>
1	"O'zsanoatqurilishbank" ATB	"O'zsanoatqurilishbank" ATB	IPO
2	"Aloqabank" ATB	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi "O'zbektelekom" AJ	SPO
3	"Asia Alliance Bank" ATB	"Asia Alliance Bank" ATB	IPO
4	"Jizzax plastmassa" AJ	"Jizzax plastmassa" AJ	IPO
5	"O'zbekiston Respublikasi tovar xom ashyo birjasi" AJ	"O'zmetkombinat" AJ va "Olmaliq kon-tog' metallurgiya kombinati" AJ	SPO

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aksiyalari birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifi orqali sotilishi belgilangan "O'zsanoatqurilishbank" ATB, "Aloqabank" ATB, "Asia Alliance Bank" ATBlari ustav kapitalining 10 foizi miqdoridagi ulushini, "Jizzax plastmassa" AJ esa ustav kapitalining 25 foizi miqdoridagi ulushini, "O'zbekiston Respublikasi tovar xom ashyo birjasi" AJ esa ustav kapitalining 12 foizi miqdoridagi ulushini IPO va SPO ko'rinishida ommaviy savdoga qo'yilishi belgilangan. Lekin amalda esa faqat bitta

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 10 maydagi «Fond birjasida aksiyalarni ommaviy taklifini o'tkazishni tashkil etish to'g'risida»gi 268-sonli qarori

“Jizzax plastmassa” AJ tomonidan aksiyalarni ommaviy joylashtirish (IPO) o‘tkazilganligini ko‘rishimiz mumkin. Qarorda belgilangan qolgan 4 ta aksiyadorlik jamiyati tomonidan IPO va SPO ko‘rinishida ommaviy savdo amalga oshirilmagan. Jumladan, davlat ulushiga ega aksiyadorlik jamiyatlarining IPO va SPO jarayonlari amalga oshirilgan va rejalashtirilayotgan aksiyadorlik jamiyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan (7-jadval).

**7-jadval**

**Respublikamizda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan o‘tkazilgan IPO va SPO amaliyoti natijalari<sup>12</sup>**

<b>Emitent nomi, IPO/SPO</b>	<b>Ander-rayter/ Broker</b>	<b>Savdodagi aksiya soni va UKga nisbatan foizda</b>	<b>Narx diapazoni</b>	<b>Ariza kelib tushgan aksiyalar soni</b>	<b>Qanoatlan-tirilganligi</b>	<b>Jalb qilingan kapital, million so‘mda</b>
Kvars AJ IPO	TIF Milliy banki	4 574 934 (10%)	3000-9100	2475039 (54.1 %)	2475039 (54.1 %)	7523.81
QMZ AJ SPO	Freedom Finance	2 236 452 (10%)	1000-4000	2821065 (126 %)	2236452 (100%)	2344.09
Kvars AJ SPO	Freedom Finance	4 822 460 (5 %)	3270.4-4000	4890179 (101.4)	4822460 (100%)	15823.87
Jizzax Plastmassa AJ IPO	Portfolio Investment	1 140 246 (25 %)	3400-3500	397569 (34,8 %)	397569 (34.8)	1352,62
“UzAuto Motors” AJ IPO	Freedom Finance	2 700 000 (0,3 %)	72500-81500	784 703 (29,1%)	784 703 (29,1%)	56900
“O‘zbektelekom” AJ IPO	Portfolio Investments	5 542 046 (2 %)	6000-10000	7 260 080 (131%)	5 542 046 (100%)	33250
“O‘zbekinvest” IPO	Kapital-Depozit Konsorsiumi	14 110 820 (5%)	1000-1500	17 920 000 (128%)	14 110 820 (100)	14110
O‘zRTXB AJ SPO	Kapital-Depozit Konsorsiumi	3 326 031 (4,44)	12900-18000	3 592 113 (108)	3 326 031 (100)	42900

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida davlat ulushiga ega aksiyadorlik jamiyatlarini xususiylashtirish va ularning aksiyalarini ommaviy taklif qilish jarayonlari jadal sur‘atlarda amalga oshirilmoqda. Bu jarayon mamlakatda kapital bozorini rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektor ulushini oshirish maqsadlariga xizmat qilmoqda. Xususan, Qvari AJ tomonidan amalga oshirilgan IPO va SPO jarayonlari orqali kompaniya 4,574,934 dona va keyinchalik 4,822,460 dona aksiyalarni joylashtirdi. Aksiyalar narxi mos ravishda 3000–9100 so‘m va 3270–4400 so‘m oralig‘ida belgilanib, jami 23,347.68 mln so‘m miqdorida kapital jalb qilindi. Bu mablag‘lar ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish va modernizatsiya qilish uchun yo‘naltirildi.

<sup>12</sup> Muallif tomonidan tuzildi.

QMZ AJ tomonidan o'tkazilgan SPO jarayonida 2,236,452 dona aksiya sotildi. Narx diapazoni 1000–4000 so'm bo'lib, 2,344.09 mln so'm kapital jalb qilindi. Bu mablag'lar korxonada faoliyatini moliyalashtirish va texnologik yangilanish uchun qo'llanildi. Jizzax Plastmassa AJ 1,104,246 dona aksiyani IPO orqali joylashtirdi. Aksiya narxi 3400–3500 so'm atrofida bo'lib, kompaniya 1,352.62 mln so'm kapital jalb qildi. Ushbu jarayon kompaniyaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi. UzAuto Motors AJ tomonidan o'tkazilgan IPO jarayoni 2,700,000 dona aksiyani qamrab oldi. Aksiya narxi yuqori bo'lib, 72500–84500 so'm oralig'ida belgilandi va natijada 56,900 mln so'm miqdorida kapital jalb etildi. Bu mablag'lar ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish va yangi modellarni chiqarish uchun sarflandi. O'zbektelekom AJ 5,542,046 dona aksiyani IPO orqali joylashtirdi. Aksiya narxi 6000–10000 so'm oralig'ida bo'lib, kompaniya 33,250 mln so'm mablag' jalb qildi. Tushgan mablag'lar telekommunikatsiya infratuzilmasini yangilash va raqamli xizmatlarni rivojlantirishga yo'naltirildi. O'zbekinvest AJ tomonidan o'tkazilgan IPO natijasida 14,110,820 dona aksiya joylashtirildi. Aksiya narxi 1000–1500 so'm bo'lib, kompaniya 14,110 mln so'm kapital jalb qildi. Bu mablag'lar sug'urta sohasini diversifikatsiya qilish va yangi mahsulotlar yaratish uchun qo'llanildi. O'zRTXB tomonidan amalga oshirilgan SPO jarayonida 3,326,031 dona aksiya sotildi va 42,900 mln so'm kapital jalb etildi. Tushgan mablag'lar savdo infratuzilmasini rivojlantirish va xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga yo'naltirildi. Davlat ulushiga ega aksiyadorlik jamiyatlarining IPO va SPO jarayonlari amalga oshirishga asosiy sabablar davlat tomonidan iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, kapital bozorini rivojlantirish va ommaviy taklif mexanizmlarini takomillashtirish va aksiyadorlik jamiyatlarning korporativ boshqaruv tizimini yaxshilash va moliyaviy shaffoflikni oshirish zarurati hisoblanadi. Davlat ulushiga ega aksiyadorlik jamiyatlarining IPO va SPO jarayonlari amalga oshirish natijasida aksiyadorlik jamiyatlarning investitsiyaviy imkoniyatlari kengaydi, axoli va sarmoyadorlar uchun qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritish imkoniyatlari ortdi, kapital bozorining faolligi va raqobatbardoshligi oshdi va davlat byudjetiga qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb qilish imkoniyati yaratiladi.

Umuman olganda, quyida "Xalqchil IPO"da amalga oshirgan aksiyadorlik jamiyalari moliyaviy ko'rsatkichlari IPOdan oldingi holati va IPOdan keyingi holatlarini tahlili aks ettirilgan (8-jadval).

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, So'nggi yillarda "O'zbektelekom" AJ va "O'zbekinvest" AJ moliyaviy ko'rsatkichlari izchil o'sish tendensiyasini namoyon etdi. 2020–2024 yillar davrida "O'zbektelekom" AJ aktivlari 45% dan ortiq o'sdi. O'z kapitali 5 barobar ortib, moliyaviy barqarorlik ta'minlandi. Daromad va foyda ko'rsatkichlari ham muttasil o'sdi. ROE darajasida pasayish kuzatilgan bo'lib, bu kapital bazasining oshishi bilan izohlanadi. To'lov qobiliyati esa 120%dan 145%gacha o'sib, kompaniyaning moliyaviy xavfsizlik darajasini oshirdi. 2020–2024 yillar oralig'ida "O'zbekinvest" AJ aktivlari qariyb 92%ga o'sdi. O'z kapitali ikki baravarga oshdi. Daromad va sof foyda ko'rsatkichlarida ham ijobiy dinamika kuzatildi. ROE kamdan-kam pasaydi, bu asosan kapital bazasi kengayishi bilan bog'liq.

**O‘zbekistonda Xalqchil IPO shaklida amalga oshirilgan aksiyadorlik jamiyatlarini moliyaviy holati tahlili<sup>13</sup>**

<b>“Uztelekom” AJ moliyaviy holati tahlili</b>					
<b>Ko‘rsatkich nomi</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>	<b>2023 (IPO oldi)</b>	<b>2024 (IPO keyingi)</b>
Aktivlar (mlrd so‘m)	6 788	7 936	8 732	9 300	9 850
O‘z kapitali (mlrd so‘m)	623	1 655	2 401	2 900	3 200
Daromad (mlrd so‘m)	4 445	5 403	6 360	7 000	7 500
Chistaya foyda (mlrd so‘m)	452	939	734	800	850
ROE (O‘z kapital rentabelligi, %)	107%	82%	36%	27.6%	26.6%
Solvency Ratio (To‘lov qobiliyati, %)	120%	130%	135%	140%	145%
<b>“O‘zbekinvest”AJ AJ moliyaviy holati tahlili</b>					
Aktivlar (mlrd so‘m)	250	310	370	420	480
O‘z kapitali (mlrd so‘m)	180	230	270	310	360
Daromad (mlrd so‘m)	95	112	125	140	165
Chistaya foyda (mlrd so‘m)	18	22	25	28	35
ROE (O‘z kapital rentabelligi, %)	10%	9.6%	9.3%	9%	9.7%
Solvency Ratio (To‘lov qobiliyati, %)	145%	150%	155%	160%	165%

To‘lov qobiliyati yuqori darajada saqlanib, 165%ga yetdi. “O‘zbektelekom” AJ va “O‘zbekinvest” AJ IPO jarayonlaridan so‘ng moliyaviy barqarorlik va o‘shishni namoyon etdi. Ikkala kompaniya ham sarmoyadorlar uchun jozibadorlikni oshirish, moliyaviy ko‘rsatkichlarni yaxshilash va bozordagi pozitsiyasini mustahkamlash imkoniga ega bo‘ldi. ROE kamayishi kapital o‘shishini, to‘lov qobiliyatining o‘shishi esa xavfsizlik darajasining oshganini anglatadi.

Disseratsiya ishida, “Toshkent” RFBda IPO jarayonlarini amalga oshirgan aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini bozor bahosini o‘shishiga ta’sir qiluvchi qimmatli qog‘ozlar bozor omillar orqali avtoregressiv taqsimlangan lag (ARDL) modelini shakllantirishda quyidagi bosqichlarni amalga oshirildi. Birinchi navbatda o‘zgaruvchilarning yagona ildiz testini o‘tkazish lozim. Mazkur ekonometrik tahlilimizni Pesaran va Shinning avtoregressiv taqsimlangan lag (ARDL) model orqali erkli va erksiz o‘zgaruvchilarning o‘zoq va qisqa muddatli bog‘liqligini aniqlash uchun mazkur modelda tahlil qilishni amalga oshirdik.

<sup>13</sup> Muallif tomonidan tuzildi

ARDL modelning xususiyatiga ko'ra, o'zgaruvchilar nolinci va birinchi tartibda statsionar bo'lish lozim. Yagona ildiz tahlilidan kelib chiqqan holda avtoregressiv taqsimlangan lag (ARDL) modelini quyidagicha ifodalaymiz. Yagona ildiz tahlilidan kelib chiqqan holda avtoregressiv taqsimlangan lag (ARDL) modelini umumiy ko'rinishi quyidagicha ifodalaymiz.

$$\Delta \ln MC_t = \alpha_0 + \sum_{i=1}^p \beta_i \Delta \ln MC_{t-1} + \sum_{j=1}^{q_1} \gamma_j \Delta X_{1,t-j} + \dots + \sum_{k=1}^{q_n} \delta_k \Delta X_{n,t-k} + f_2 \ln MC_{t-1} + f_2 X_{1,t-1} + \dots + f_{n+1} X_{n,t-1} + \varepsilon_t \quad (1)$$

Bu yerda,

$\ln MC_t$  — bog'liq o'zgaruvchi (masalan, bozor kapitalizatsiyasining logarifmi),

$X_1, X_2, \dots, X_n$  — mustaqil o'zgaruvchilar (masalan: aksiyalarni ommaviy joylashtirish xajmlari, valyuta kursi, M2 pul agregati, bitimlar soni, kapital bozorida ishtirok etuvchi aksiyadorlik jamiyatlari soni),

$\Delta$  — birinchi farq operatori (ya'ni o'sish sur'atini anglatadi),

$f_2$  — uzoq muddatli munosabatni ifoda etuvchi koeffitsientlar

$\beta, \gamma, \delta$  — qisqa muddatli ta'sir koeffitsientlari,

$\varepsilon_t$  — tasodifiy xato (white noise) termini.

Yuqoridagi (1) formulaga asosan, ekonometrik tahlilimizda aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini bozor bahosini o'sishiga ta'sir qiluvchi omillarni ta'siri darajasini ARDL modelidan shakllantiramiz. Ushbu shakllantirilgan modelning natijalarini quyidagi jadvalda o'z aksini topgan (9-jadval).

9-jadvaldagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, keltirilgan koeffitsientlar va ehtimollik darajalari (p-value) orqali omillarning "Toshkent" Respublika fond birjasidagi bozor kapitallashuviga uzoq muddatli ta'siri baholandi. Aksiyalarni ommaviy joylashtirish xajmlar hajmi koeffitsienti -0.739062 bo'lib, aksiyalarni ommaviy joylashtirish xajmlar miqdori 1 foizga oshsa, bozor kapitallashuvi 0.74 foizga pasayishiga olib keladi. Bu ko'rsatkichni statistik ahamiyati bqori bo'lib p-qiyamati 0.0134 ga teng hisoblanadi. Demak, aksiyalarni ommaviy joylashtirish xajmlar ko'payishi aksiya bozoriga investitsiya oqimini kamaytiradi. O'zbek so'mining valyuta kursining koeffitsient 1.927852, lekin ehtimollik ( $p = 0.3498$ ) yuqori hisoblanadi. Demak, valyuta kursining uzoq muddatli ta'siri ijobiy, ammo statistik muhim emasligi yaqqol ko'rinib turibdi. Pul agregati M2 koeffitsient esa, -0.198990, p-qiyamat 0.7353, xususan ta'sir salbiy, lekin ahamiyatli emasligi ko'rinib turibdi. Bu shuni anglatadiki, M2 o'sishi fond bozoriga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Shuningdek, birjada ro'yxatdan o'tgan aksiyadorlik jamiyatlari soni koeffitsient -0.448969, p-qiyamat 0.0898, bu 10% darajada statistik muhim hisoblanadi. Demak, ro'yxatdagi jamiyatlar soni ko'paysa, kapitallashuvda pasayish kuzatilishi mumkin. Bu esa, ularning moliyaviy natijalarining samarasizligi va bozordagi raqobatga bordoshliligini ko'rsatadi. Xulosa qilib ta'kidlash joizki, aholi mablag'lari aksiyalar o'rniga aksiyalarni ommaviy joylashtirish xajmlarga yo'naltirilmoqda va ro'yxatdan o'tgan jamiyatlar soni ko'paygani bilan, ularning fond bozorida ta'siri deyarli reaksiya bermasligi tadqiqotdan ko'rinib turibdi.



Avtoregressiv taqsimlangan lag (ARDL) modelida baholash<sup>14</sup>

“Toshkent” RFBni kapitallashuviga ta’sir qiluvchi omillar ta’sirini baholash				
O‘zgaruvchilar	ARDL(3, 3, 4, 1, 2, 0, 4)			
	Koeffitsient	Standart xatolik	t-statistika	Ehtimollik
<i>dlnmc (-1)</i>	-0.690110	0.151021	-4.569643	0.0001**
<i>dlnmc (-2)</i>	-0.572194	0.178105	-3.212669	0.0031**
<i>dlnmc (-3)</i>	-0.332088	0.156843	-2.117332	0.0424**
<i>ddep</i>	-0.415158	0.175713	-2.362703	0.0246**
<i>ddep (-1)</i>	-0.861619	0.275312	-3.129611	0.0038**
<i>ddep (-2)</i>	-0.277740	0.282992	-0.981441	0.3340
<i>ddep (-3)</i>	-0.362900	0.222356	-1.632064	0.1128
<i>dexch</i>	-9.323148	3.696465	-2.522179	0.0170**
<i>dexch (-1)</i>	7.190519	4.075013	1.764539	0.0875
<i>dexch (-2)</i>	-1.491199	3.640405	-0.409624	0.6849
<i>dexch (-3)</i>	3.830869	3.210229	1.193332	0.2418
<i>dexch (-4)</i>	4.794563	2.678492	1.790023	0.0832
<i>dm2</i>	0.739267	1.013106	0.729704	0.4710
<i>dm2 (-1)</i>	-1.255526	0.930887	-1.348741	0.1872
<i>dqljsc</i>	-0.295138	0.239263	-1.233532	0.2266
<i>dqljsc (-1)</i>	-0.126611	0.268070	-0.472306	0.6400
<i>dqljsc (-2)</i>	-0.743054	0.241587	-3.075724	0.0044**
<i>dqmd</i>	0.006211	0.100159	0.062016	0.9509
<i>lmt</i>	-0.004420	0.015038	-0.293955	0.7708
<i>lmt (-1)</i>	-0.031612	0.016322	-1.936741	0.0619
<i>lmt (-2)</i>	0.018863	0.017916	1.052833	0.3006
<i>lmt (-3)</i>	0.009102	0.017980	0.506214	0.6163
<i>lmt (-4)</i>	0.029155	0.017757	1.641846	0.1107
<i>C</i>	0.034396	0.120214	0.286122	0.7767
Modelni mezonlari				
Qoldiqlar kvadrati (R)			0.678381	
O‘zgargan qoldiqlar kvadrati			0.439760	
F-statistika			2.842924	
Ehtimollik (F-statistika)			0.003592**	

\*\*\* 1% da statistik muhimligini, \*\*5% da statistik muhimligini, \*10% da statistik muhimligini ko‘rsatadi.

Erkli o‘zgaruvchi hisoblangan kapital bozori kapitallashuvi (*dlnmc*) va erksiz o‘zgaruvchilarni esa, aksiyalarni ommaviy joylashtirish xajmlari (*ddep*), valyuta kursining (*dexch*), logarifimli M2 pul agregati (*dm2*), bitimlar soni (*dqmd*) hamda kapital bozorida ishtirok etuvchi aksiyadorlik jamiyatlari sonining (*dqljsc*) shakllantirilgan ARDL modelini mustahkamligini tekshirish uchun qoldiqlarni SUSUM testini amalga oshiramiz

<sup>14</sup>“Toshkent” RFB ma’lumotlari asosida Eviews-9.0 programmasi yordamida muallif tomonidan tayorlangan.



**1-rasm. Qoldiqlarning umumiy yig'indisini SUSUM testi<sup>15</sup>**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, avtoregressiv taqsimlangan lag (ARDL) modelida olib borilgan chuqur ekonometrik tahlil natijasi erksiz o'zgaruvchi kapital bozori kapitallashuviga aksiyalarni ommaviy joylashtirish xajmlari va valyuta kursini ta'siri baholanib, ekonometrik tahlil asosisida amalga oshirimiz natijasida shuni ko'rsatdi. Fond bozori kapitallashuvini o'sishiga aksiyalarni ommaviy joylashtirish xajmlari hajmi va valyuta kursini o'zgarishi qisqa va uzoq muddat ta'sir qilishni ko'rsatadi.

<sup>15</sup>O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank va Toshkent" RFB ma'lumotlari asosida Eviews-12.0 programmasi yordamida muallif tomonidan tayorlangan.

Boshqa omillar o'zgarmagan (ceteris paribus) holda aksiyalarni ommaviy joylashtirish xajmilar hajmi 1 foizga oshganda, bozor kapitallashuvi taxminan 0.7391 foizga kamayadi. Bu esa bank sektorga qaraganda fond bozoriga kamroq mablag' oqimini anglatadi. Xulosa shundan dalolat beradiki, aksiyalarni ommaviy joylashtirish xajmilar o'sishi investorlarning aksiya bozoriga kirish imkoniyatlarini cheklab, uning kapitallashuvini pasaytiradi. Shuningdek, valyuta kursi 1% ga oshganda, xususan so'm qadsizlanganda fond bozori kapitallashuvi 9.32% ga pasayishi kuzatiladi. Devalvatsiya ichki va tashqi sarmoyadorlarning ishonchini pasaytiradi, bu esa aksiya narxlarini tushiradi va umumiy bozor kapitallashuvini pasayishiga olib keladi. Shuning uchun valyuta barqarorligi fond bozori rivoji uchun strategik ahamiyatga ega omil hisoblanadi.

Tadqiqot ishining **“Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida xalqchil IPO jarayonini amalga oshirishni asosiy yo‘nalishlari”** nomli uchinchi bobida O‘zbekistonda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini takomillashtirishda xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish istiqbollari va davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida xalqchil IPO jarayonini amalga oshirishni takomillashtirish yo‘nalishlari bayon qilingan.

Ommaviy joylashtirish amaliyotini rejalashtirayotgan aksiyadorlik jamiyatlari uchun hamkor tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ommaviy joylashtirish amaliyotini muvaffaqiyatli bo‘lishida tanlangan hamkorlarning o‘rni beqiyosdir.

IPO amaliyotini tashkil qilishni rejalashtirayotgan aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan hamkorlarni tanlashda yuqoridagi jadvalda keltirilgan jihatlarni inobatga olish asosida eng ma’qul hamkorni tanlash va bu orqali ommaviy joylashtirish amaliyotini muvaffaqiyatli tashkil etilishiga erishiladi. IPO muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun uni har tomonlama to‘g‘ri rejalashtirish, puxta tayyorgarlik ko‘rish va samarali tashkil etish lozim. Biz quyidagi IPO jarayoniga tayyorgarlik ko‘rish, IPO ni o‘tkazish va IPO dan keyingi jarayonda bajarilishi lozim bo‘ladigan yo‘nalishlarni ko‘rib chiqamiz. Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan IPOga tayyorgarlik jarayonida oldindan rejalashtirish va tayyorgarlik ko‘rish, IPOga tayyorgarlikni baholash, IROni amalga oshirishni rejalashtirish singari ishlarning amalga oshirilishi, IROni o‘tkazish jarayonida esa birjaga chiqish, loyihani asoslash, IROni amalga oshirish singari ishlar, IPO amaliyotini tashkil etgandan keyin esa tashkilotni ochiq jamiyatga aylantirish, aksiyadorlik jamiyati ochik jamiyat sifatida samarali ishlashini ta’minlash uchun o‘zgarishlarni amalga oshirish singari ishlarni amalga oshirish lozim.

Kompaniya, odatda, uning faoliyatini moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan miqdorda fond birjasiga qimmatli qog‘ozlar chikarish haqida o‘ylaydi. Lekin har doim ham qimmatli qog‘ozlarni fond birjasiga joylashtirish to‘g‘ri tanlov bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun ham qimmatli qog‘ozlarni birjaga joylashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilishdan oldin, kompaniya bir qator masalalarga oydinlik kiritib olishi zarur. Quyidagi jadvalda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan qimmatli qog‘ozlarni fond birjasida joylashtirishdan oldin oydinlik kiritib olishi lozim bo‘ladigan masalalarni ko‘rishimiz mumkin.

**Hamkorlarni baholash testi: IPO uchun sheriklar va maslahatchilarni tanlashga ta'sir qiluvchi asosiy omillar<sup>16</sup>**

Ularda kerakli tajriba va aloqalar mavjudmi?	Ular kerakli malakaga egami?	Ular sizning kompaniyangiz manfaatlarini inobatga oladimi?
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Ular bizga o'xshash kompaniyalarga muvaffaqiyatli IPO o'tkazishda yordam berishdimi?</li> <li>- Ular IPO jarayonidagi rolini tushunadimi?</li> <li>- Siz listing rejalashtirgan mamlakatlarda ular faoliyat yuritganmi?</li> <li>- Siz listingni rejalashtirgan bozorda ularning tajribasi yoki obro'i bormi?</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Ularning faoliyati bu borada xamkorlikka yo'naltirilganmi?</li> <li>- Ular birgalikdagi faoliyat davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda o'zaro fikr va muloxaza almashadimi?</li> <li>- Ular professional va sifatli xizmatlarni taqdim eta oladimi?</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Ular har bir muammoning eng yaxshi yechimini topish uchun mukobil variantlarni ko'rib chikishadimi?</li> <li>- Ular sizga jarayonni tushuntirishda yordam berishdan manfaatdormi?</li> <li>- Ular sizning kompaniyangizning o'ziga xos extiyojlarini qondirish uchun, siz bilan ishlash uchun eng yaxshi yo'nalishni bera oladimi?</li> </ul>

Ko'pgina kompaniyalar IPO ga to'g'ridan-to'g'ri tayyorgarlik boshlanishidan ancha oldin ochiq jamiyat sifatida ishlashga tayyorgarlik ko'radilar. Oldindan tayyorgarlik loyihani amalga oshirish jarayonida muvaffaqiyatsizlik va kutilmagan hodisalarsiz kerakli natijaga erishishning asosiy omillaridan biridir. Bunday tayyorgarlik jarayonning dastlabki bosqichida tegishli choralar ko'rishga imkon beradi va tashkilotning tuzilishi yoki bitimlari bilan bog'lik aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga imkon beradi, bu esa kompaniyaga IPO dan maksimal foyda olish imkonini beradi. Qimmatli qog'ozlarni fond birjasida joylashtirishdan oldin oydinlik kiritib olish lozim bo'ladigan masalalarni ko'rishimiz mumkin.

Aksiyadorlik jamiyati tomonidan IPOga tayyorgarlik ko'rish jarayonida maqsad qo'yish, investorlar uchun ma'lumot tayyorlash, IPO bo'yicha maslahatchi topish, birjani to'g'ri tanlash, IPOga tayyorlik testidan o'tish, jadvalni tuzish, kamchiliklarni bartaraf etish, hamkorlarni tanlash, investorlar bilan aloqalar bo'limini yaratish, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash singari jarayonlarni va har bir jarayonda amalga oshirilishi lozim bo'ladigan ishlarni aniq belgilab olishi va ushbu ishlarni bajarishi aksiyadorlik jamiyati tomonidan amalga oshirilayotgan ommaviy joylashtirish amaliyotini muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlab beradi.

IROni tayyorligini baholash (IPO-diagnostika) kompaniyaga muvaffaqiyatli bitimning muhim jihatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Bu jihatlariga quyidagilar kiradi.

Odatda, kompaniyalar IPO jarayoni boshlanishidan ancha oldin ochiq aksiyadorlik jamiyati sifatida faoliyat yuritishga tayyorgarlik ko'radilar. Kompaniyaning tayyorligiga qarab, IPO jarayoni 4-12 oygacha davom etishi mumkin. Dastlabki tayyorgarlik - bu fond birjasiga muvaffaqiyatli kirishning asosiy

<sup>16</sup> <https://www.pwc.ru/en/capital-markets/assets/roadmap-for-an-ipo-rus.pdf>

omillaridan biri bo‘lib, bu kompaniyaga IPO jarayonini muammosiz va samarali amalga oshirishga imkon beradi. Har bir bozorda qimmatli qog‘ozlar chivariluvini tayyorlash va joylashtirish muddati tartibga solish talablaridagi jihatlar tufayli farq qiladi.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda aksiyalarni birlamchi ochiq joylashtirish (IPO) amaliyotiga hukumat darajasida jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Bunda IPO operatsiyalarining muvaffaqiyatli kechishi aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog‘ozlarining daromadlilik darajasiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Xalqaro fond birjalarida IPO operatsiyalarini tashkil etishda esa listing talablari va soliq omilini xam hisobga olish, bunda moliyaviy va soliq maslahatchilari xizmatidan foydalanish tavsiya etiladi.

## 11-jadval

### IPO - diagnostikasi natijasida tahlil qilinishi lozim bo‘lgan jihatlar<sup>17</sup>

<b>Guruh tarkibi</b>	Guruh ro‘yxati qaysi kompaniya orqali o‘tishi va qaysi kompaniyalar guruhga kirishi (va qaysi biri kiritilmasligi) masalasini ko‘rib chiqish. Ushbu masalalarni hal qilish bitim tuzilishiga, soliqni rejalashtirishga bog‘liq bo‘lishi mumkin.
<b>Moliyaviy ma‘lumotlar</b>	Emissiya risolasida ishtirok etish uchun oldingi uch yil davomida moliyaviy axborotni shakllantirish. Kompaniyaning buxgalteriya siyosatining oshkor qilish qoidalariga muvofiqligini baholashda davlat kompaniyalari, shu jumladan segmentlar bo‘yicha hisobot berish majburiydir.
<b>Korporativ boshqaruv</b>	Korporativ boshqaruvni tashkil etishning, shu jumladan, kuzatuv (direktorlar) kengashi va qo‘mitalar tuzilmasini, shuningdek, aksiyadorlik jamiyati talablariga muvofiqligini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan o‘zgarishlarni baholash.
<b>Moliyaviy funksiyaning samaradorligi</b>	Kompaniyada faoliyat yuritayotgan tizimlarni shu jumladan IT-tizimlarini, moliyaviy hisobotlarni tuzish va boshqaruv axborot tizimlarini, byudjetlashtirish va rejalashtirish tizimlarini baholash.
<b>Normativ - huquqiy talablarga rioya etilishi xavfi va masalalari</b>	Mavjud tizimlarni. shu jumladan jinoiy yo‘l bilan olingan pul mablag‘larini oqlashni nazorat qilish tizimini baholash; qonunbuzilishlar haqida, maxfiy axborot tizimi; biznes yuritish kodeksi hamda ichki audit tizimi.
<b>IPO uchun birja platformasini tanlash</b>	Birlamchi IPO talablari va ko‘rib chiqilayotgan tayyorgarlik jarayonining dastlabki bosqichlarida birjalarda listingni o‘tkazishdagi farqlarni taxlil qilish, kompaniyaning IPO o‘tkazishni qabul qilish mezonlariga muvofiqligi bilan bog‘liq bo‘lgan potensial masalalar doirasini aniqlash.

Umuman, yuqoridagi tahlillar asosida keltirgan xulosalarimiz, taklif va tavsiyalarimizni amaliyotda joriy etish aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faolligini oshirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz. Bu o‘z navbatida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat ko‘lami kengayishiga va moliyaviy barqarorligi o‘shishiga, mulkdorlar tarkibining kengayishiga va umumiy holda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi deb o‘ylaymiz.

<sup>17</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

Aksiyalarni ochiq obuna tarzida xalqaro fond birjalarida joylashtirish, ya'ni IPO operatsiyalarining tashkiliy xususiyatlariga doir quyidagi xulosalarni alohida keltirib o'tish mumkin:

Birinchidan, aksiyalarni ochiq obuna tartibida joylashtirish nisbatan yuqori miqdordagi xarajatlarni, ko'p vaqtni talab qilsada katta miqdordagi kapitalni ham jalb qilish imkonini beradi. Bu o'z navbatida yangidan-yangi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, rivojlanayotgan davlatlardagi strategik ahamiyatga ega korporativ tuzilmalar tomonidan IPO operatsiyalarini tashkil etish va o'tkazish jarayonida mazkur amaliyotning kamchiliklarini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Chunki, g'arazli kayfiyatdagi investorlarning korporativ tuzilmalar faoliyatiga kirib kelishi kompaniya moliyaviy xavfsizligiga putur yetkazishi bilan bir vaqtda mamlakat iqtisodiyotiga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Uchinchidan, potensial investorlarni jalb qilish maqsadida taqdimotlar o'tkazish jarayonida investor faoliyati tashkil etilgan davlatda soliqqa tortish darajasini ham hisobga olish lozim. Chunki dividendlarga nisbatan soliq yuki yuqori bo'lgan davlatlarda aksiyalar sotib olish orqali daromad ko'rishga intilish darajasi nihoyatda past bo'ladi.

To'rtinchidan, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini xalqaro fond birjalarida ochiq joylashtirish amaliyotini tashkil etishda listing talablaridan biri hisoblangan dastlabki to'lovlar va har yillik to'lovlar darajasini hisobga olish lozim. Chunki bunday to'lovlarning amalga oshirilishi aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmasligi talab etiladi.

## **XULOSA**

Dissertatsiya tadqiqoti asosida quyidagi xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish – eng kamida bir yildan bir necha yilgacha cho'zilib ketishi mumkin bo'lgan uzoq muddatli jarayon bo'lib, unda kompaniya o'z aksiyalarini cheklanmagan doiradagi jismoniy va yuridik shaxslarga ommaviy sotishi mumkin. Kompaniya IPO ga chiqishdan oldin bo'lajak investorlar uchun ma'lumotlar shaffofligini ta'minlash, moliyaviy faoliyati auditini o'tkazish va kompaniya tashkiliy tuzilmasini qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq katta hajmdagi ishlarni amalga oshiradi. Shuningdek, kompaniyaning uzoq muddatli strategiyasi va maqsadlari ishlab chiqiladi. IPO ni boshlash uchun anderrayter tanlab olinib, uning yordamida fond birjasida listingga kirish shartlari bajarilib, ommaviy taklif etilayotgan aksiyalarning narx diapazoni o'rnatiladi. IPOning so'ngida uning muvaffaqiyatlilik darajasi hisoblanib, natijalar tahlil qilinadi. 2024-yilga qadar O'zbekistonda 8 ta IPO o'tkazilgan bo'lib, keyingi yillarda davlat mulki xususiylashtirish maqsadida yana kamida 35 ta kompaniyadagi davlat ulushi IPOga chiqarilishi belgilangan.

2. Kompaniya aksiyalarini fond bozorida ommaviy joylashtirishda nafaqat mahalliy aholi va investorlar, balki xorijiy sarmoyadorlarni ham jalb qilish IPO ga chiqarilgan aksiyalarning to'liq sotilishiga va kompaniyaning maksimum daromad olishiga sabab bo'lishi mumkin. O'zbekiston fond bozorida xorijiy investorlarning

harakati cheklanganligi va chet el investorlarining mamlakatdagi iqtisodiy siyosatga ishonchsizligi sababli fond bozori savdolarida ularning ishtiroki deyarli kuzatilmaydi. Shu bois, kompaniya aksiyalarini IPO ga chiqarishda nafaqat mahalliy fond bozori, balki xorijiy fond bozoriga ham kross-listing mexanizmi asosida joylashtirish xorijiy investorlarni mamlakatga jalb qilishga olib kelishi mumkin.

3. Xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan IPOlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, IPOlarning muvaffaqiyatli o'tishi aksariyat hollarda anderrayterlarning sa'y-harakatlariga bog'liqdir. Bunda kompaniya IPOga chiqishdan oldin anderrayterlar takliflarini puxta o'rganib, ular orasida eng yaxshisini tanlashi zarur. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har doim ham anderrayterlar tomonidan bildirilgan eng yaxshi taklif kompaniya uchun eng manfaatli bo'lmasligi mumkin. Bunday holatda IPOga chiqayotgan kompaniyalar anderrayterlarni nufuziga qarab tanlashi zarur. Shuningdek, kompaniyalar aksiyalarini ommaviy joylashtirish yagona anderrayter tomonidan o'tkaziladigan hollarda ham IPOlarning muvaffaqiyatsiz yakunlanish sabablaridan biri bo'lishi mumkin. Shu bois, xorijiy mamlakatlarda kompaniyalarni ommaviylashtirish jarayoni anderrayterlarning birlashishi – anderrayterlar sindikatini tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Mazkur tajriba hozirga qadar O'zbekiston amaliyotida joriy qilinmaganligi bois kompaniyalar tomonidan o'tkazilgan IPOlarga yetarli darajada investorlar jalb qilinmasligiga olib kelgan.

4. Kompaniya tomonidan o'tkaziladigan IPOning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p omillarga bog'liq bo'lib, tadqiqot ishida doirasida ishlab chiqilgan IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini bevosita va uzoq muddatli ta'sir indikatorlari orqali aniqlash uslubiyoti mamlakatda o'tkazilgan IPOlarning muvaffaqiyatlilik darajasini hisoblash va kelgusida o'tkazilishi rejalashtirilgan IPOlarning muvaffaqiyatlilik darajasini turli xil ssenariylar asosida aniqlash imkoniyatini taqdim etadi. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan tahlillar natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda tashkil etilgan umumiy 8 ta IPOning 2 tasi muvaffaqiyatli va 6 tasi muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Muvaffaqiyatsiz yakunlanganlarning asosiy sabablari sifatida, eng avvalo, anderrayterlar institutining yaxshi shakllanmaganligi, IPOga chiqadigan kompaniya rahbariyati va xodimlarining IPO to'g'risida yetarlicha bilim va ko'nikmaga, IPOga nisbatan hayrihox emasligi hamda aholiga kompaniya to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq yetkazilmayotganligi ko'rsatilgan.

5. Kompaniyalar IPOga chiqishdan oldin faoliyati shaffofligini, barcha ma'lumotlarning ochiqqligini ta'minlashi talab etiladi. O'zbekistonda o'tkazilgan IPOlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kompaniyaning transparentlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, IPOning muvaffaqiyatli yakunlanishi ehtimoli shuncha yuqori bo'ladi. Tadqiqot ishi doirasida 6 ta IPO ga chiqqan kompaniyalarning transparentlik darajasi tahlil qilinib, shaffoflik darajasi yetarli darajada ta'minlanmaganligi natijasida aniqlangan.

6. Dunyoda yuzaga kelgan geosiyosiy noaniqlik va iqtisodiyotdagi keskin o'zgarishlar oqibatida IPO bozori keskin tushush davri sifatida qaralmoqda. Bu esa o'z navbatida investorlarning fond bozorlariga bo'lgan ishonch va iqziquishlari susayganini anglatadi. Bunday geosiyosiy keskinlik sharoitida IPO bozorining keyingi yillarda rivojlanish tendensiyalarini aniq tavsiflab bo'lmaaydi. Sababi,

mamlakatlar o'rtasida siyosiy munosabatlar yaxshilanmas ekan kompaniyalarning IPOga chiqishida salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kompaniyalarning fond bozoriga aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish orqali chiqishi ularni o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishlari uchun zarur kapitalni jalb qilish hamda mamlakat aholisi va xorijiy investorlar orasida kompaniya brendini tanitish uchun kuchli mexanizm sifatida xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.22/29.12.2023.I.175.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
ТАШКЕНТСКОМ МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**  

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**КАДИРОВА УМИДА ЭРГАШЕВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЦЕССА  
ПУБЛИЧНОГО ПРО В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ С  
ГОСУДАРСТВЕННОЙ ДОЛЕЙ УЧАСТИЯ**

**08.00.07 - Финансы, денежное обращение и кредит**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации на соискание ученой степени  
доктора философии (Doctor of Philosophy) по экономическим наукам

город Ташкент – 2025 год

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.1.PhD/Iqt3754.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете. Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета ([www.tiu.uz](http://www.tiu.uz)) и Информационно-образовательном портале "ZiyoNet" ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:** Рахмонов Дилшоджон Алиджонович  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Абдурахмонов Илёс Хуршидович  
доктор экономических наук, доцент

Алмардонов Мухаммади Ибрагимович  
доктор экономических наук, профессор

**Yetakchi tashkilot:** Ташкентский филиал Российского экономического университета имени Г.И.Плеханова

Защита диссертации состоится 12<sup>00</sup> в час. «09» 08 2025 г. на заседании Научного совета DSc.22/29.12.2023.I.175.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском международном университете. (Адрес: 100114, г. Ташкент, улица Малая кольцевая, дом 7. Тел.: (99895) 131-55-55; факс: (99895) 131-55-55; e-mail: [info@tiu.uz](mailto:info@tiu.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского международного университета (внесен в список под № 81). Адрес: 100114, г. Ташкент, улица Малая кольцевая, дом 7. Тел.: (99895) 131-55-55; факс: (99895) 131-55-55; e-mail: [info@tiu.uz](mailto:info@tiu.uz)

Автореферат диссертации разослан «25» 07 2025 года.  
(реестр протокола рассылки № 30 от «17» 05 2025 года)



**Н.Х.Жумаев**  
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

**А.Т.Абсаламов**  
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, доцент

**А.Р. Норов**  
Заместитель председателя научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В условиях глобализации в мире практика реального IPO является одним из наиболее распространенных механизмов финансирования акционерных обществ с государственной долей в привлечении финансовых ресурсов для финансирования своей деятельности, расширения производственных мощностей, выхода на новые рынки и повышения уровня конкурентоспособности. В частности, капитал, привлеченный посредством IPO и SPO, не только укрепляет экономическую устойчивость компании, но и расширяет ее возможности для совершенствования системы корпоративного управления, развития корпоративной культуры и выхода на международные финансовые рынки. Акционерные общества проявляют особую активность в проведении IPO на рынках Индии, США и Европы. В частности, в Индии в 2024 году было проведено 327 IPO, привлечено средств на сумму 19,9 миллиарда долларов<sup>18</sup>. Это, в свою очередь, показывает, насколько важно IPO как источник привлечения дополнительных инвестиций для развития компании и достижения поставленных целей.

В мире проводятся широкомасштабные научные исследования по совершенствованию практики публичного размещения акций. Эти исследования охватывают такие вопросы, как роль практики массового размещения в экономике, ее виды и сущность, а также важность и необходимость организации этой практики корпоративными структурами. Однако в существующих исследованиях недостаточно глубоко изучены проблемы и закономерности, связанные с эффективной организацией практики публичного размещения акций, возможности публичного размещения акций в процессе приватизации, вопросы эффективного формирования системы отношений с инвесторами после публичного размещения, а также особенности деятельности организаторов торгов в процессе публичного размещения. Поэтому научные исследования, проводимые в этом направлении, сегодня имеют высокую актуальность.

В настоящее время в Узбекистане проводится широкомасштабная работа по развитию рынка ценных бумаг. В частности, в последние годы в стране созданы институциональные основы для развития рынка ценных бумаг. Вместе с тем, такие проблемы, как отсутствие независимого государственного органа по развитию финансового рынка, неэффективная организация деятельности фондового рынка, в частности, несовершенство механизма оценки активов фондового рынка, препятствуют полноценному использованию имеющихся возможностей в данной сфере. Поэтому в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы особо определена задача "в целях увеличения финансовых ресурсов в экономике в ближайшие

---

<sup>18</sup> <https://www.visualcapitalist.com/visualizing-global-ipos-in-2024-by-country/?weekend-reading-link-210225/>

пять лет довести оборот фондового рынка с 200 миллионов долларов США до 7 миллиардов долларов США"<sup>19</sup>.

Указы Президента Республики Узбекистан № УП-4933 от 17 января 2017 года «О мерах по ускорению реализации государственных активов для предпринимательских целей и дальнейшему упрощению ее процедур», № УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», № УП-5927 от 8 января 2020 года «О дополнительных мерах по сокращению государственного участия в экономике и усилению роли частного сектора», № УП-6207 от 13 апреля 2021 года «О мерах по дальнейшему развитию рынка капитала», № УП-186 от 25 августа 2022 года «О дополнительных мерах по ускорению приватизации стратегических государственных активов и сокращению государственного участия», Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан № УП-256 от 14 декабря 2022 года «О дополнительных мерах по реформированию государственных предприятий и повышению эффективности их деятельности», а также Постановлений Кабинета Министров Республики Узбекистан № 268 от 10 мая 2017 года «Об организации публичного размещения акций на Фондовой бирже», № ПП-5052 от 13 апреля 2021 года «О мерах по дальнейшему развитию рынка капитала и улучшению инвестиционного климата», № ПП-3666 от 25 августа 2022 года «О мерах по эффективному управлению государственными активами и новому этапу их приватизации», № ПП-102 от 24 марта 2023 года «О мерах по расширению государственного участия в экономике», «О дополнительных мерах по сокращению количества первичных размещений акций» и Постановления № ПП-2 от 5 января 2024 года «О мерах по либерализации рынка капитала и ускорению процессов IPO» и других нормативно-правовых документов, касающихся отрасли, данное диссертационное исследование в определенной мере послужит реализации задач, изложенных в

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. "Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики"

